BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Babayeva Dono Razzakovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish mazmuni, mohiyati va nazariy asoslari ko‘rib chiqilgan. Bo‘lajak tarbiyachilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritib borilishi, elektron ta’lim resurslarini yangi avlodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, axborot texnologiyalariga doir bilimlar berish usul va vositalarini takomillashtirish hamda elektron ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning axborot texnologiyalariga doir ijodiy qobiliyati, kreativ fikrlashi, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etishga doir dolzarb masalalar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Abstract: This article examines the content, essence, and theoretical foundations of using digital technologies in creating a developmental environment for future educators. In order to increase the general level of the use of digital technologies for future teachers, making permanent changes to the main educational programs of higher education institutions, developing and improving new generations of electronic educational resources, improving the methods and means of imparting information technology knowledge and to develop the creative ability, creative thinking, ability to use domestic and global educational resources of future educators in the

electronic educational environment, to improve educational efficiency Current issues related to the study and implementation of foreign experiences were discussed.

Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni islox etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta’lim tizimida ham jiddiy o‘zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O‘zbekiston Respublikasida birinchilardan bo‘lib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tadbiq etib borilmoqda. Bugungi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularni rivojlantirish kabi murakkab masalalarni muvaffakiyatli hal kilish jixatdan pedagogining g‘oyaviy e’tiqodi, kasbiy maxorati, bilimdonligi hamda madaniyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Zero, zamonaviy pedagog tarbiyalanuvchilarga ta’sir etish, ularning istaklari, layokatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak.

Jamiyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish ko‘lami kengayishi tufayli uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali qaror qabul qilish uchun kerakli ma’lumotlarni topish, raqamli qurilmalar bilan ishlash, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy-tahliliy o‘rgana olishi, zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanishi hamda yangi ishlab chiqilayotgan innovatsion texnologiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish bo‘icha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.[1.76]

Bo‘lajak tarbiyachilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritib borilishi, elektron ta’lim resurslarini yangi avlodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, axborot texnologiyalariga doir bilimlar berish usul va vositalarini takomillashtirish hamda elektron ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning axborot texnologiyalariga doir ijodiy qobiliyati, kreativ fikrlashi, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etishga doir dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan ta’lim tizimi sezilarli darajada o‘zgardi. Raqamli vositalar va platformalarning ta’lim sharoitlariga integratsiyalashuvi o‘rganishda muhim omillarni berdi, bu esa qulaylik, moslashuvchanlik va innovatsiyalar uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, raqamli ta’lim tashabbuslarining kengayishi sharoitida ushbu texnologik aralashuvlarning samaradorligi va oqibatlarini tanqidiy baholash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud raqamli ta’lim tizimini har tomonlama o‘rganishga qaratib, uning kamchiliklari va muammolarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan.[2.3]

Raqamli ta’lim o‘quv natijalarini yaxshilash va shaxsiylashtirilgan ta’limni osonlashtirish uchun ulkan salohiyatga ega bo‘lsa-da, u e’tibor talab qiladigan ko‘plab murakkab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu masalalar texnologik infratuzilmalar, pedagogik yondashuvlar, o‘quvchilarni jalb qilish strategiyalari, tenglik mulohazalari va institutsional asoslar kabi turli sohalarni qamrab oladi. Ushbu ko‘p qirrali o‘lchovlarni o‘rganish orqali texnologiya va ta’lim o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ochish va ta’limni raqamlashtirishning muammolik taraflariga oydinlik kiritish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi. Hozirgi raqamli ta’lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri texnologik infratuzilmalarning yetarliligi va ishonchliligi bilan bog‘liq. Raqamli vositalar va platformalar uzluksiz aloqa, hamkorlik va ta’lim resurslariga kirishni osonlashtirish potentsialiga ega bo‘lsa-da, texnologik kirish va infratuzilmadagi nomutanosiblik samarali raqamli ta’limga jiddiy to‘siqlar keltirib chiqaradi.

Raqamli texnologiyalar (shaxsiy kompyuter, planshet, proektor, multimediya vositalari, elektron adabiyotlar va boshqalar) ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bo‘lajak tarbiyachilarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda bo‘lajak tarbiyachilar amaliyot jarayonida Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining

rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi.[3.3].

Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasligini inobatga olish kerak bo‘ladi. Bunda bo‘lajak tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari, shuningdek, bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari lozim. Hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog‘liq, ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratilsa bo‘lajak tarbiyachilarning o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o‘yin bilan klassik ta’limni birlashtirishga teng bo‘lib, natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, o‘zlashtirish, ta`lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev M., Saidahror, G., & Ayupov, R. Raqamli iqtisodiyot -kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. 2020y.
2. Kozlova N. Sh. Ta’limdagi raqamli texnologiyalar // Maykop davlat texnologiya universitetining xabarnomasi. 2019.
3. Erjigitova G. Zamonaviy ta`limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.-T.:2024.